

**TIL PEDAGOGIKASI: O'RGANISH VA MULOQOTNI KUCHAYTIRISH***D. Rahmatova<sup>1</sup>**Annotatsiya:*

Maqolada til pedagogikasi: o'rganish va muloqotni kuchaytirish to'g'risida turli xil ilmiy va uslubiy qo'llanmalar va metodlar haqida keng ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* kommunikator, pedagogika, texnologiya, prinsplar, predmet.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/y6kxhj50>

**Kirish:**

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

**Asosiy qism:**

Til pedagogikasi: Ko'p tilli muhitda ona tilining qadr-qimmatini anglash, bolalarning uni o'rganishi va undan foydalanishi uchun imkoniyat yaratish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ko'p tillarni rivojlantirish kognitiv rivojlanish uchun foydalidir va akademik va professional kontekstda afzalliklarni berishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ona tili tilning o'zlashtirilishi va rivojlanishini belgilovchi yagona omil emas. Turli tillarga ta'sir qilish, sifatli til o'rgatishga kirish, motivatsiya va o'rganish uslubi kabi individual farqlar ham rol o'ynaydi. Xulosa qilib aytganda, ona tili tilni o'zlashtirish va rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U boshqa tillarni o'rganish uchun zamin yaratadi, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi va madaniy o'ziga xoslikning asosiy jihati hisoblanadi. Til o'qituvchilari sifatida biz ona tilining qadr-qimmatini tan olishimiz va o'quvchilarimizning til ko'nikmalari va madaniy o'ziga xosliklarini rivojlantirish uchun ko'p tillilikni targ'ib qilishimiz kerak. Birinchidan, ona tili tilni egallash uchun mustahkam zamin yaratadi. Bolaning dastlabki til tajribasi ularning til rivojlanishini chuqur shakllantiradi va ularning kognitiv rivojlanishiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Darhaqiqat, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z ona tilini erta yoshda o'rgangan bolalar keyinchalik boshqa tillarni o'zlashtirishda muvaffaqiyat qozonishadi. Ona tili aqliy langar bo'lib xizmat qiladi, bu bolalarga o'zlarining yangi tili va birinchi tili o'rtasida aloqa o'rnatishga imkon beradi. Bu tilni yaxshiroq tushunishga, so'z boyligini rivojlantirishga va umumiy til ko'nikmalariga olib keladi.

<sup>1</sup> *Raxmatova Dilnavoz Abdimuradovna, O'zDJTU nemis tili amaliy fanlar kafedrasida stajyor o'qituvchisi*

Madaniyat inson hayotida hamda jamiyat taraqqiyotida ahamiyatli rolni o'taydi. Madaniyat va til tushunchalari yonma-yon va ajralmas tushunchalar hisoblanadi. Demak, tillarni o'qitish va o'rganishda madaniyatni o'rgatish, urf-odat va an'analarni hisobga olish asosiy talablardan biridir. Barchamizga ma'lumki, hozirgi davrda chet tillarini o'rganish nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa deya e'tirof etilmoqda. Tilni bilish bu o'sha tilda so'zlashuvchi xalq vakillari bilan to'liq muloqotga kirisha oladi, degani emas. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, til va madaniyat, xalqning an'analari, kundalik turmush tarzi tilni o'rganish, tilda gapirish va tilni tushunishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda esa madaniyatlararo muloqotni shakllantirish hozirgi kundagi tillarni o'rganishda e'tibor qaratilishi muhim bo'lgan omil hisoblanadi.

Madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda har bir shaxsning alohida ijtimoiy va psixologik xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olish zarur. Bu xususiyatlar esa "faqatgina bir-biriga taqqoslash orqaligina namoyon bo'ladi va bu qiyoslashni amalga oshirish uchun madaniy aloqa bo'lishi kerak" [Azzi va Klein, 1998: 77]. Madaniy muloqot har bir shaxsning o'ziga xos va shu bilan birga boshqa shaxslarga, boshqa millat vakillariga o'xshash ekanligini namoyon qilishga xizmat qiladi va shu orqali inson jamiyatda o'z mavqei va o'rnini belgilab oladi. Til o'rganish orqali shaxs o'z madaniyatini shakllantirishi, insoniy fazilatlarini takomillashtirishi, boshqa xalq madaniyatini tushunish orqali hozirgi davrda muhim bo'lgan tolerantlik fazilatlariga ega bo'lishi mumkin. Madaniyatlararo muloqotning shaxsga bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlari yuzasidan izlanishlar o'tgan asrning 60-yillarida Amerika olimlari tomonidan boshlangan. Muloqotga kirishishni to'g'ri amalga oshirish uchun o'z madaniyatini boshqa xalq madaniyati bilan faqatgina solishtirib qolmasdan, o'sha madaniyatning o'xshashligi va farqlari, go'zalligi va qo'polligi, yaqinligi va o'z madaniyatidan yiroqligi o'rtasida mutanosiblikni belgilab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fransuz sosiologi Karmel Kamilyerining izlanishlari madaniyatlararo muloqot jarayonidagi aynan mana shu jihatlarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan omillarni hisobga olib aytishimiz mumkinki, chet tillarini o'rganish bu insonlar va turli millatlar o'rtasidagi mavjud to'siq va chegaralarni bartaraf etishga, yer yuzidagi yashovchi barcha xalq vakillarining bir-birlarini to'g'ri tushunishlariga, hamjihatlik va o'zaro murosada yashashlariga ham xizmat qiladi. Shu sababdan, ingliz tilini o'rgatishda va o'rganishda ingliz tilida so'zlashuvchi barcha davlatlarda yashovchi xalqlarning urf-odatlarining xilma-xil ekanligini, masalan, Buyuk Britaniya va AQSHdagi madaniyat bir xil emasligi, fransuz tilini o'rganishda esa Fransiya madaniyati, Kanada va Afrika davlatlari madaniyatlari bir-biridan to'laligicha farq qilishligini e'tirof etishlik talab etiladi.

Til pedagogikasini o'rganish: Oddiy qilib aytganda, odamlar qanchqalik ko'p tillarni o'rgana boshlasa, shunchalik dunyo ahli bir-biri bilan yaxshi kommunikatsiya aloqalarini yo'lga qo'ya oladi va shu yo'l orqali bir-biriga yaqinlashadi. Ingliz tili ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun investitsiyangizni kiriting. Bu axir dunyodagi lingua franka-ku (lingua franka – dunyoda o'z ona tilidek qabul qilingan til). Yaxshi aloqalar kamroq xatolar demakdir. Xato tarjimalar biznesda qimmatga tushishi mumkin. Til o'rganish madaniyatlar almashinuvi, jamiyatlar rivojlanishi hamda boshqa insonlarni tushunish va tinchlik uchun g'amxo'rlik qilish — ular uchun nima dolzarbligini anglash

uchun muhim. Bu dunyo bo'ylab xaridorlar va mijozlar uchun barcha turdagi imkoniyat eshiklarini ochadi. Agar siz tilni xorijga borib o'rgansangiz, unda bu ko'nikma kun-u tun yangi til bilan yashash va birgalikda dunyo mamlakatlari fuqarolari bilan ishlash aspekti, kommunikatsiya, ziddiyatlarni hal qilish va muammoni hal qilish tajribalarini sezilarli darajada oshiradi. Qo'shimcha ravishda ikkinchi va uchinchi tillarni bilish sizning hujjat (CV)ingizni boyitadi: ishga qabul qiluvchilar diqqat markazida bo'lgan ajoyib kommunikatorlarni yaxshi ko'rishadi. Buyuk Britaniyada tilni maktabdan o'rganishga chuqur e'tibor berilmaganligi tufayli mamlakat har yili £48 miqdoridan ko'p xalqaro biznes imkoniyatlarini qo'ldan boy beradi. Yangi tajribalar o'rganish (tillar kabi) aqliy sog'lomlik uchun foydali deb topilgan; nerv sistemalarini yaxshilaydi va o'zingizga bo'lgan ishonchning ortishiga sabab bo'ladi. Bu dunyo bo'ylab yangi do'stlar orttirishning eng yaxshi yo'li. Professional xalqaro aloqalar sizning kariyerangiz asosisidir. Bu muloyimlik belgisi! Sayohat chog'ida, siz mehmon bo'lgan davlatingiz tilida bir necha so'zlarni bilishingiz aholining e'tiborini tortadi va ularni xursand qiladi. qanchalik siz ko'p gapira olsangiz, tub aholi bilan shunchalik yaxshi tajriba almashishingiz va shunchalik ko'p munosabat ko'priklarini qurishingiz mumkin. Bu tadqiqotchi va kashfiyotchilar uchun ham boshqa dunyo olimlari bilan barcha ilm, sog'liq va texnologiyalarga doir so'nggi yangiliklarini bo'lishishga yordam beradi. Akademik qog'ozlarning ingliz tilida yozilganligi ularga tez-tez murojaat qilinishi sababli ham ingliz tili katta ta'sirga ega. Bir necha tillarni bilgan odamlar odatda ajoyib muammolarni yechuvchi kreativlar bo'lishadi, sababi til o'rganish sizning dunyo qarashingizni turli nuqtai nazarlardan o'rgatadi. Jamoaviy hamkorlik orzularning amalga oshishiga xizmat qiladi. Ajoyib til qobiliyatini asosan kuchli kommunikatsiya yuzaga keltiradi. Til o'rganish xotirangizni mustahkamlaydi hamda Altsgeymer va demants kabi xotira bilan bog'liq kasalliklar ta'siridan himoya qiladi. Bunday kasalliklar bizning sog'lig'imizga va butun dunyo iqtisodiyotiga bosim o'tkazadi, shuning uchun til o'rganishni rag'batlatirish bizning g'amxo'rlik tizimimizga va yuqoridagi hastalik bilan azob chekayotganlarga ham yordam berishi mumkin.

Til pedagogikasi: o'rganish va muloqotni kuchaytirish: Muloqot shaxslararo munosabatlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar. Shuning uchun muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson g'oyalari qaror topishiga xizmat qiladi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi fazilatlar, sifatlar namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Pedagogik muloqot pedagogik ta'sirning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv-tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida o'zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O'quvchilar ham o'qituvchidan hurmat va ishonchni

talab etadilar pedagogik ta'sirning samarali yo'li bo'lib, tajribali pedagoglar bolaning o'z-o'zini hurmatlashiga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu orqali o'zaro munosabatlarni amalga oshiradilar. Muloqotning o'ziga xos 3 ta darajalari mavjud. Bular: makro darajada (katta) - insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-axloq normalariga suyangan holda amalga oshiriladi. Mezo darajada (o'rta) muloqot ma'lum mavzu asosida kechadi (masalan, askiyada ma'lum mavzudan chekinmaslik). Mikro daraja (kichik) muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tariqasida yuz beradi. Muloqotning turlari: shaxslararo (inson-inson), shaxsiy-guruhiy (guruh-guruh), ommaviy kommunikatsiya (radio, televideniye, ro'znomalar va oynomalar) kabi turlari mavjud.

Pedagogik muloqotda ijodiylik quyidagilarga bog'liq: O'quvchilar bilan o'zaro birgalikda harakat qilish (A.A. Bodalev); bolaga ta'sir qilishda uning xulq-atvorini boshqarish, o'zaro harakatning turli yo'llarini qo'llash;

- o'qituvchining o'z-o'zini boshqara olishi; o'zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylik xarakterini saqlay bilish.

Demak, o'qituvchi o'quvchilar bilan ziddiyatlarga borsa, qandaydir muammo tug'ilsa darhol hal qilishi lozim. Pedagogik muloqotdagi ijodiylik ham shunda bilinadi. Pedagogik muloqotda o'qituvchi bolaning ko'ziga qarab uning xayolidan nima kechayotganligini bilib olishi kerak.

Ijodiylik o'zaro munosabatlardan boshlanadi. Har bir pedagog o'z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib bolalar bilan muloqotda bo'lishi, nostandart usullarni izlab topishi kerak. Pedagogik ta'sir ham pedagogik muloqotdagi ijodiylik orqali amalga oshiriladi.

Ijodiylikni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- bir necha o'qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o'quvchilarning kayfiyatini, o'qituvchining bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganish;

- o'qituvchining darsda qanday usullarni qo'llashi, muloqotni qanday tashkillashtirish, o'quv-tarbiyaviy muammolarni yechishini aniqlash; - o'zining muloqot texnologiyasini boshqa o'qituvchining texnologiyasiga taqqoslashi; tajribali o'qituvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali muloqot jarayonidagi o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlashdadir.

Kasbiy-pedagogik muloqot murakkab hodisa. Shaxs kasbiy-pedagogik muloqot qilishdan avval o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi. Jumladan, muloqot maqsadini, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o'tkazilishini rejalashtiradi. Pedagogik muloqotning eng muhim bosqichi - modellashtirish hisoblanadi. Bu bosqichdan muhim, mas'uliyatli muammoni hal qilishda foydalaniladi. Masalan, darsga tayyorlanish, ma'ruzani rejalashtirish ham shu bosqichga kiradi. Birinchidan, dasturga mos ravishda dars loyihasi tuziladi. Ikkinchidan, o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Uchinchidan, dars jarayonida qo'llanadigan ta'lim-tarbiya usullari tanlanadi. To'rtinchidan, bolaning aqliy rivojlanish qobiliyati hisobga olinadi. Ikkinchi bosqich bevosita muloqot bosqichi. Buni «kommunikativ hujum» deb atash mumkin. Chunki o'qituvchi tashabbusni to'liq o'z qo'lga olib dars boshlaydi. Uchinchi bosqich esa muloqotni boshqarish bosqichi bo'lib, kasbiy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Kasbiy-pedagogik muloqotning vazifasi texnologiyani o'zlashtirish bo'lib, unda o'qituvchi iliq munosabatlarni qo'llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo'ladi. Darsda tashabbusni qo'lga olish usullari quyidagilardan iborat:



Sinf bilan aloqani yo'lga qo'yishda zudlik bilan harakat qilish; tashkiliy ishlardan dars jarayonining muhim bosqichiga tezlik bilan o'ta olish;

Sinfning ijtimoiy-psixologik yakdilligini, «biz» hissini shakl- lantirish;

Vaziyatga qarab bolalar bilan muloqot usullarini qo'llash; butun sinf jamoasi bilan yaxlit aloqani tashkillashtirish;

Latofat, samimiylik, sofdillikni o'zida shakllantira olish, darsda namoyon qila olish;

Taqiqlangan pedagogik talablarni kamaytirish, vaziyatga qarab ish tutish;

Mimika (yuz ifodasi), pantomimika (harakatlar), ko'z bilan ta'sir qilish (noverbal muloqot) ni faol qo'llash; O'zaro bir-birini tushunishni his qilish (V.A. Kan Kalik). Kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida o'qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o'rin egallaydi. Bola o'qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Aks holda ishonchli, samimiy muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo'ladilar. O'qituvchi bola katta bo'layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyati shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki til pedagogikasini o'rganish va mulotni kuchaytirish eng jiddiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Tili o'qitish birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog'liq. Ilmiy dargohlarda o'qitiladigan o'zbek tili predmetining ilmiy asosini va mazmunini, dastavval til haqidagi fan belgilab beradi. O'zbek tili o'qitishning to'g'ri tashkil etilishi va samarali bo'lishi til to'g'risidagi lingvistik xulosalarning ilmiy va aniq bo'lishiga bog'liq. O'zbek tili o'qitish metodikasini va uning taraqqiyotini tilshunoslik fanisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek tili o'qitish metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan ham bog'liq holda ish olib boradi. Pedagogika ta'lim tarbiya prinsplarini belgilab beruvchi fanligi va O'zbek tili darslarida ham ta'lim prinsplari qo'llash kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1]. Ассаад Э. И Кляйн О. Социальная психология и межгрупповые отношения, Париж, Дюно. 1998.
- [2]. Холл Э. Парадокс культуры // Во имя жизни. Очерки в честь Эриха Фромма. Нью-Йорк, 1971 год.
- [3]. Юсупова, Ф. М. (2021). Об особенностях обучения русскому языку в условиях иноязычного национального окружения. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1324-1329.
- [4]. Э.Т. Зал. Тихий язык. Нью-Йорк: Anchor Books, 1990.
- [5]. Шульц С. Управление корпоративными коммуникациями: межкультурный подход.
- [6]. Международное высшее образование Макмиллана, 2003 г.
- [7]. Xushmurodova Sh.Sh. Madaniyatlararo muloqot muammosiga lingvotadaniy yondashuv (o'zbek va ingliz tillari misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati, Samarqand-2020.
- [8]. Хасанова, Гулсанам Хусановна. “Ўзбекистон, Япония ва Жанубий Корея касб-хунар таълими тизимларининг ўзига хос хусусиятлари.” *Современное образование (Узбекистан)* 3 (2018).
- [9]. Hasanova G. X. O'zbekiston va Yaponiya umumiy va kasbiy ta'lim tizimlari. 2020.